

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KLASTERLARNING INVESTITSIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

D.Marupov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Buxgalteriya hisobi ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

A.Norbutayev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Buxgalteriya hisobi ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

O.N.Xaitov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali assistenti

Annotatsiya:

Ushbu maqola paxta—to‘qimachilik klasterlarining faoliyatini rivojlantirish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha mamlakatimizda bir qator normativ – huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularga investitsiya siyosatini shakllantirish imkoniyatini yaratmoqda.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, klister, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, eksport, markazlashgan moliyaviy resurslar, qimmatli qog‘ozlar, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo‘jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg‘armalari

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, ichki va tashqi savdo sharoitining doimiy o‘zgarib borishi bozor munosabatlariga o‘tish shart – sharoitini, uning o‘ziga xos xususiyatlarini atroflicha o‘rganishni taqozo etadi. Hozirgi vaqtda respublikamiz eksport salohiyatini mustahkamlashda muhim tarmoqlardan biri sanalgan – paxtachilik majmui taraqqiyotiga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birgalikda, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar siyosatini amalga oshirish orqali tayyor mahsulot ishlab chiqarishlarni yo‘lga qo‘yish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shuning uchun paxta tolasiga chuqur ishlov berish natijasida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga hukumatimiz jiddiy e‘tiborini qaratmoqda. Paxta—to‘qimachilik klasterlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab—quvvatlash bo‘yicha qator chora—tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga joriy etilmoqda.

Shuningdek, paxta—to‘qimachilik klasterlarining faoliyatini rivojlantirish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha mamlakatimizda bir qator normativ – huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ularga investitsiya siyosatini shakllantirish imkoniyatini yaratmoqda.

Iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo‘lgan klasterlarning investitsiya siyosati klasterlar

tomonidan o'z funksiyalari va vazifalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarni tashkil etish va ulardan foydalanish bo'yicha amalga oshiriladigan chora — tadbirlar majmuasi hisoblanadi.

Ushbu siyosat eng samarali real va moliyaviy investitsiyalarni tanlash hamda amalga oshirishdan iborat.


Investitsiya siyosatini amalga oshirish jarayoni deganda, investitsiya siyosatida qo'yilgan maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarish uchun amalga oshiriladigan investitsiyalarni boshqarish tushuniladi.

Investitsiya siyosati ularni amalga oshirish usullari va vositalarini aniqlash hamda ulardan foydalanish, natijalarning rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga muvofiqligini doimiy monitoring qilish, tahlil qilish va baholashdan iborat.

Investitsion siyosat investitsiya resurslarini eng yaxshi taqsimlashda namoyon bo'ladi. U investitsiya operatsiyalarining ta'siri, samaradorligi va

maqsadga muvofiqligini, investitsiya resurslaridan foydalanishni baholash usullari va mezonlarini tanlash hamda ishlab chiqishni belgilaydi.

Klasterlarning investitsiya siyosatini ichki va tashqi omillar bilan belgilanishi, investitsiya siyosatining ichki va tashqi turlarga bo'linishiga sabab bo'ladi (1 –rasm)



1- rasm. Klasterlar investitsiya siyosatining turlari

Klasterlarning ichki investitsiya siyosati - bu klaster ichidagi munosabatlar, jarayonlar va hodisalarga qaratilgan siyosat.

Tashqi investitsiya siyosati - klasterning moliya bozorlaridagi, kredit munosabatlaridagi, tashqi yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlaridagi faoliyatiga qaratilgan siyosat.

Biz yuqorida klasterlarning investitsiya siyosatini ichki va tashqi omillar bilan belgilanishini ta'kidlab o'tgan edik. Endi ushbu omillar haqida quyidagilarni ma'lum qilamiz.

Ichki omillar – bu klaster boshqaruvchisining nazorati ostida bo'lgan, u boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan omillardir. Ichki omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:


- boshlang'ich resurslar bilan bog'liq omillar;
- ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq omillar;
- mahsulot chiqarilishi bilan bog'liq omillar.

Tashqi omillar — bu qisqa muddatda klaster boshqaruvchisi tomonidan boshqarilmaydigan yoki ta'sir qila olmaydigan omillardir. Tashqi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tadbirkorlik faoliyati tsikli va tarkibiy o'zgarishlar;
- resurslar;

- hukumat va infratuzilma;
- inflyatsiya va soliqlar;
- nodavlat tashkilotlar va ijtimoiy harakatlar.

Klasterlarning investitsiya siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo'lish kerak deb hisoblaymiz (2 – rasm).



2-rasm. Klasterlar investitsiya siyosatining turlari

Klasterlarning investitsiya siyosati real va moliyaviy investitsiya loyihalarini asoslash, ushbu loyihalarni amalga oshirish va foyda olishga qaratilgan moliyaviy yechimlarni tanlashga qaratilgan. Bularning barchasi belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishni kafolatlaydi va raqobatdosh ustunliklarni mustahkamlashga yordam beradi. Investitsiya siyosati investorning maqsadlariga javob berishi va ularga erishishning samarali usullarini o'z ichiga olishi kerak.

Klasterlar tomonidan investitsiya loyihalarni tanlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- loyihalarning klaster strategiyasiga muvofiqligini, shuningdek, loyihalarning bir—biriga va umuman butun klasterga o'zaro ta'sirini o'rganish;
- loyihani tanlash mezonlarini o'rganish;
- loyihalarni taklif qilgan va ularni ishlab chiqadigan xodimlarni loyihalarni tanlashga jalb qilish;
- o'rganilgan mezonlar asosida loyihalarni tanlash;
- loyihalari rad etilganlarni ushbu qarorning to'g'riligiga ishontirish; xavf va noaniqlikning natijalarga ta'sirini minimallashtirish;
- uzoq muddatli investitsiya budjetini ishlab chiqish.

Agar investitsiyalar bir nechta investitsiya obyektlari bo'yicha taqsimlangan bo'lsa, investor investitsiya portfeliga ega deb aytiladi. Bunday portfelning asosiy afzalligi shundan iboratki, undan foydalanganda, agar loyihalarning daromadlari va risklari o'zaro bog'liq bo'lmasa, portfelning risk darajasi alohida portfellarining risk darajasiga nisbatan kamayadi. Qoidaga ko'ra, faqat yirik klasterlar ko'p sonli loyihalardan investitsiya portfelini shakllantirishlari mumkin.

Bu o'z navbatida klasterlarning ishlab chiqarish faoliyatiga va moliyaviy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qiladi. Ularning yillik daromadining oshishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.
2. Qudratov Sh.G'. O'zbekiston Respublikasi fond bozori va uning rivojlanishiga ta'sir qilayotgan asosiy muammolar. Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 2 (100), chast 2 «Nauchniy impuls» sentyabr, 2022. S. 688.
3. Sul'tonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son.
4. Nurmuhamedov A.A. Nurmuhamedova B.I. Fond bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi. "Skienke and Edukation" Skientifik Journal. / ISSN 2181-0842 March 2023 / Volume 4 Issue 3